

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi  
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

**M.M.Temirova**

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari ..... 208

**Q.Sulaymonov**

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni ..... 213

**X.E.Xodjamberdiyev**

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

**A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev**

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi  
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

**M.M.Abdullayeva**

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi  
(Namangan viloyati misolida) ..... 226

**F.Abdurasulova**

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi  
davrida rivojlanishi ..... 232

**A.A.Aloxunov**

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati ..... 236

**M.B.Siddiqov**

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi ..... 241

**G.A.Abdug'aniyeva**

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi ..... 247

**N.V.Karimova**

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati ..... 257

**G.V.Abdullayeva**

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

**S.Q.Mamatova**

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

**N.Y.O'roqova**

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini ..... 271

**D.A.Qahharova**

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

**S.A.Xaqnazarova**

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar ..... 287

**M.Islomova**

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur ..... 290

**A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova**

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) ..... 294

**Y.B.Eshmatova**

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

**Д. О.Турдалиев**

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации ..... 303

**F.B.Sultonqulova**

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи ..... 306

**G.A.Jurayeva**

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310

**TURK HIKOYACHILIGIDA AN'ANA VA YANGILANISHLAR SINTEZI****СИНТЕЗ ТРАДИЦИИ И НОВШЕСТВ В ТУРЕЦКИХ РАССКАЗАХ****THE SYNTHESES OF TRADITION AND INNOVATIONS IN TURKISH STORYTELLING****Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna** 

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, PhD

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada turk yozuvchisi Yashar Kamolning "Issiq kunda" hikoyasida ona va bola obrazi talqini tadqiq qilinadi. Hikoyadagi tarang psixologik vaziyat yozuvchining uslubiga xos folklor an'analarga ham oydinlik kiritiladi. Adib badiiy izlanishlaridagi baxtsiz bolalik o'z asarlariga obraz bo'lib ko'chib o'tganligiga ham munosabat bildiriladi.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается интерпретация образа матери и ребенка в повести «В жаркий день» турецкого писателя Яшара Кемаля. Напряженная психологическая обстановка в рассказе также проливает свет на характерные для стиля писателя фольклорные традиции. Есть и реакция на то, что несчастливое детство художественного поиска писателя было перенесено в его произведения как образ.

**Abstract**

This article discusses the interpretation of the image of mother and child in the story "On a Hot Day" by the Turkish writer Yasar Kemal. The tense psychological situation in the story also sheds light on the folklore traditions characteristic of the writer's style. There is also a reaction to the fact that the unhappy childhood of the writer's artistic search was transferred to his works as an image.

**Kalit so'zlar:** modernizm, postmodernizm, intuitiv, dramatik, janr, polotno, obraz, uslub, syujet, psixologik talqin.

**Ключевые слова:** модернизм, постмодернизм, интуитивность, драматургия, жанр, полотно, образ, стиль, сюжет, психологическая интерпретация.

**Key words:** modernism, postmodernism, intuitiveness, dramaturgy, genre, canvas, image, style, plot, psychological interpretation.

**KIRISH**

Jahon adabiyotshunoslida hikoya janri poetikasi borasida qator tadqiqotlar yaratildi. Antik yunon madaniyatidan to hozirgi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud janr tendensiyalari mutassil yangilanib borishi ayni haqiqatdir. Zamonaviy turk yozuvchilar badiiy izlanishlarida hikoya janri modernizm va postmodernizm kabi adabiy oqimlar o'Ichovida juda ko'plab namunalarini uchratish mumkin. Turk hikoyachiligini badiiy san'at darajasiga olib chiqqan yozuvchilar ayollar obrazini teran idroklaydi. Shunday ekan, badiiylik modusi o'z-o'zidan taraqqiy qilmaydi. Buning bosh sababi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy azim evrilishlar ham turk adabiyotida katta bir polotnoni qamraydi. Turk badiiy nasri haqida so'z borganda XX asr adabiy manzaralari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Buning ikki jihatni fikrimizni to'laqonli quvvatlaydi: birinchidan, hikoyachilik birinchi jahon urushidan keyin yangi bosqichga ko'tarildi, ikkinchidan jamiyat hayotidagi ijtimoiy-maishiy muammolar girdobida qolgan bani bashariyat maqsad-tililishlari kun tartibidagi asosiy vazifalardan biriga aylanib qoldi. "1960-1980 yillar turk nasrida adibalar hikoyachiligi bo'rtib ko'rindi. Bu hikoyalar o'zigacha bo'lgan erkak yozuvchilar hikoyachiligidan uslub, obraz, syujet, psixologik talqin usuli, ayniqsa, ayol qalbini teran tasvirlashi bilan farq qiladi. Bu davr ayollar hikoyachilida ko'zga tashlangan monolog-hikoya shakli turk zamonaviy nasri uchun yangilik edi. Qisman intuitiv, qisman lirik va dramatik tuyg'ularga yo'g'rilgan, ma'lum darajada dekadent kayfiyatga o'xshab ketadigan monolog-hikoyaning eng yetuk namunalari ikki turk adibasi – Naziha Merich va Firuzan tomonidan yaratildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yangilanayotgan davrda zamondosh ayolning qalbi, ichki kechinmalari, ruhiy holati qalamga olindi. Ayol ba'zan ojiz, zaif, kuchsiz, ba'zan irodali, chidamli, bardoshli, qanoatli, ba'zan esa ham ma'naviy, ham madaniy qashshoq, ba'zida fidoyi ona siyosida tasvirlandi.<sup>71</sup> - deya yozadi filologiya fanlari doktori P.Kenjaeva. Bundan ko'rinaldiki, turk hikoyachiligining ilk ildizlari XX asr boshlarida badiiy adabiyotga kirib kelgan Umar Sayfiddin izdoshlari Yashar Kamol izlanishlarida yanada yuksak darajada taraqqiy etdi. 60-yillarga kelib ko'plab yozuvchilar jahon adabiyotida hikoya janri poetikasiga tub burilish yasadi. Turk adabiyotining yorqin ijodkorlaridan biri Yashar Kamol badiiy izlanishlarida hikoya qilish san'ati boshqalarnikidan juda katta farq qiladi. Chexov, A.Qahhor singari Yashar Kamol ham siqiq bir tarzda voqelikni idroklaydi. Uning hikoyalarida tugun – konfliktga keng yo'l ochadi.

Bolaligida baxtsiz hodisa sabab besh yosharligida o'ng ko'zidan ayrılgan adib ilk ijodini qishloqdoshlariga jozibali maktublar yozish bilan boshlagan Yashar Kamol turk yozuvchilari orasida birinchilardan bo'lib Nobel mukofotini qo'lga kiritadi. Baxtsiz bolalik – yetimlik va haqirlik Yashar Kamolni kuchli yozuvchi bo'lib ulg'ayishiga turtki bo'ladi. Adibning "Issiq kunda" nomli hikoyasida ayol – ona obrazining teran psixologik talqini ko'ramiz:

- Bola: «Onajon, – dedi. – Onajon ertaga ertalab kun yorishmasdan uyg'ot meni».
- Yana uyg'onmaysan baribir.
- Uyg'onmasam igna suq etimga. Sochlarmi tort. Ur meni.
- Yuzlari oppoq oqargan, nozik xotinning qora ko'zları sevinchli bir shu'la bilan yiltiradi.
- Shunda ham uyg'onmasang-chi?
- O'ldir meni.
- Xotin bor kuchi bilan bolani quchog'iga olib, bag'riga bosdi.
- Jonim! – dedi.
- Uyg'onmasam... – bola o'ylandi va birdan: – og'zimga qalampir tiq! – dedi.
- Onasi yana zo'r shafqat bilan, ko'zları yoshlangan holda uni bag'riga bosib o'pdi.
- Bola timmasdan yana takrorladi:
- Eshitib qo'y, agar uyg'onmasam, og'zimga qalampir tiq, xo'pmi!
- Jonim! – dedi ona.
- Qalampir juda achchiq bo'lsin.
- Erkalanar, tepinib sho'xlik qilar va to'xtamasdan qichqirardi:
- Achchiq qalampir, qip-qizil qalampir... Bir achitsinki og'zimni... bir achitsinki... darrov... darrov uyg'onaman.

Onasining qo'lidan qutulib, u yugurgancha ayvonga chiqib, to'shagiga yotdi. Dim bir yoz kechasi... Ko'k yuzida xira miltillagan yulduzlar va g'ildirakday yumaloq katta oy... To'shakdan sassiq ter hidi keladi[68].

Keltirilgan parchada yozuvchi ona va bolaning ixcham bir dialogini tasvirlaydi. Rus adabiyotida Chexov singari ixcham tasvirlash prinsiplari Yashar Kamol (Kamol Sodiq Go'kchali) badiiy izlanishlarida yanada yorqinroq bo'yoqlarda yuzaga chiqadi. Hikoyada Usmon ismli bolaning "bolalikdan mehnatga" qiziqlishi, oilasiga xizmat qilib pul topishi, qashshoqlikning azobu uqubatlaridan xalos bo'lish uchun "Ertal uyg'onish"ga odatlanishi idroklanadi. Yozuvchi mehribon validasining Usmon haqidagi quyg'u va izziroblari kuchli dramatizm bilan yo'g'irlgan. Ayniqsa, murg'aq bolakayning tafakkuri ham, maqsad-tilishlari ham xuddi katta odamlar kabi fikrlesh tarzi ham "erta uyg'onish"ga juda mos va xosdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, Yashar Kamol juda ko'pchilik hikoyalarida, qissalarida – ayol obrazini ziyraklik bilan qalamga oladi. Bolalar hayoti, ularning unib-sishlari, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlari yozuvchi ijodiy konsepsiyasining ajralmas halqalaridir desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yozuvchi qisatining nihoyatda og'ir mashaqqatlari ning har bir asariga ko'chib o'tganligini o'qiganimizda asarlarida ham bu hol sezilib turadi. "Issiq kunda" hikoyasi ona va bola orasidagi kuchli dramatik muloqot, bolaning ruhiyatidagi o'sish-o'zgarishlar, ilmga va mehnatga chanqoqlik yozuvchining o'z avtobiografiyasini yodimizga soladi. U hatto o'rta maktabni ham tugata olmagan.

<sup>71</sup> Кенжева П. XX asr turk ҳикоячилигининг тараққиёт тамоиллари. [www.https://kknews.uz/uz/15897.html](https://kknews.uz/uz/15897.html)

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Shunday bo'lsa-da, jahon adabiyotida Yashar Kamol nomi bilan shuhrat qozondi. Yashar Kamol hikoyalariagi dialoglar inson ichki olamini teranroq anglashga keng yo'l ochadi. Har bir ta'kid bag'rida ijodkorning qalb og'riqlari, bolaligi, butun insoniyatga mehr uloshuvchi ramz sifatida gavdalanadi:

Ona g'azab bilan: «Uyg'otmayman» dedi. «Uyg'otmayman, ochimizdan o'lsak o'laylik. Bir bolaning ishlagani nima bo'lardi?»

Ko'zlarini uning ingichka qo'liga tikib, hozirga qadar bolasining bunchalik zaif ekanligining farqiga bormagani o'zini taajjublantirdi.

– Ochimizdan o'lsak ham o'laylik.

Uzun soch o'rimini og'ziga solib, qattiq chaynadi. Pastdan eri baqirdi:

– Yana uyg'onmadimi?

Xotin erkalagan, yolborgan bir tovush bilan: – bola faqirdan nima istaysan? – dedi, – mushtday joni bor. Suyaklari sinadi og'ir ishda...

Eri achchiqlandi:

– Bugun vaqtli uyg'onishi kerak! Uyg'onsin deyman senga! Ishlasin! Tanballikka o'rganmasin.

Bolalikdan pishmog'i kerak.

Xotin norizo ahvolda qo'rqa-qo'rqa:

– Qo'li shu qadar ingichka-ki... – dedi.

Bolaning boshiga borib turdi. Par singari nozik bolani uyg'otib issiq kunda ishga jo'natishga ko'ngli hech rozi emas edi.

– Pastdan kelgan g'azabli tovush:

– Uyg'ot! – dedi, – ot haydaydi. Mustafo og'olarga so'z berganmiz. Agar bormasa, qaerdan bola topadilar so'ngra? Xotin:

– Hoy odam! – dedi, – hech ko'nglim chopmayotir. Bir nozikki... Uning ishlashi bizni boy qilarmidi?

Erkak:

– Hozirdan ishlashga o'rgansin – dedi.

Xotin bolaning sochlarini siladi. Sekin uyg'ota boshladи:

– Usmonim, Usmonjonim tur, qo'zichog'im tur, tong yorishdi. Usmonim.

Bola ingradi. Asta bir yondon ikkinchi bir yonga ag'darildi.

– Usmonim, qo'zichog'im! Tong otib qoldi...[2].

Hikoyaning nomiga e'tibor berilsa issiq kunda deb nomlanadi. Bir oila maishiy turmushidan olingan voqelik butun turk xalqining boshidan o'tkazayotgan o'sha davrdagi ijtimoiy-psixologik kayfiyatni namoiyish qilmoqda. Ayniqsa, yoshlikdan mehnatga tarbiyalanayotgan Usmonning ruhiyatida kelajakka bo'lgan katta umid va ishonch barq urib turganligini bilish qiyin emas! Negaki, Usmon o'zining mehnati evaziga hayot kechirishni maqsad qiladi. Bechora onaizorning mehr-shafqati, nozik qo'larini ushlab, erkalashlari har qanday o'quvchini asar mohiyatida aks etgan falsafani anglashga zamin hozirlaydi.

Qahri qattiq otaning kojishlari ham haqqoniy ifodalangan. Sabab: jamiyat hayotining uzil-kesil o'zgarishlarga yuz tutishi, nihoyatda og'ir turmush kechirishi, ikkinchi jahon urushining xalqlar boshiga solgan kuifatlari o'sha davr odamlari ruhiyatidagi evrilishlar shular jumlasidandir.

### XULOSA

Yashar Kamol – folklor an'analarni ustalik bilan o'z asarlarida qayta inkishof qildi. Turk xalq og'zagi ijodining go'zal namunalari, bolalik va uning orzu-umidlari har bir qissa va romanlarida samimiy ifodasini topdi. Chunonchi, turk hikoyachiligidagi an'anaviyслик xalq og'zaki ijodidan rohatlanish, har qanday davr uchun adabiy mavzularning serqatlamligi fikrimiz yorqin dalilidir.

“Issiq kunda” hikoyasi yozuvchining bola haqidagi tasavvurlari, bolalikning rangin lahzalari boshqa qissa va romanlariga ham ko'chib o'tgan. Ayniqsa, “Ilonni o'ldirsalar”, “Ozg'in Memed” romanlaridagi falsafiy-psixologik vaziyat, qahramon ruhiyatidagi azim evrilishlar yozuvchi uslubiga xos chuqur dramatik, tragik ifodalarda yanada qabarib ko'rindi. Shuni qayd etish lozimki, yozuvchi har bir hikoyasida – bosh qahramonni o'z qismatidan ayro tasavvur qilmaydi. Yashar Kamol ruhiyatida aks etgan hayot falsafasi o'z asarlarida badiiy obrazlilikni, tasvir prinsilarida jozib bir tarzda gavdalanadi. Zero, yozuvchi o'z olamini qayta hikoya qilib bermaydi, unga munosabat bildiradi, xolos!

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кенжава П. XX аср турк ҳикоячилигининг тараққиёт тамоиллари. [www.kknews.uz/uz/15897.html](http://www.kknews.uz/uz/15897.html)
2. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/yashar-kamol/yashar-kamol-issiq-kunda-hikoya/>